



Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna,
*Nizomiy nomidagi TDPU “Pedagogika” kafedrası
professori, pedagogika fanlari nomzodi*

TALABA QIZLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH MAZMUNI

Annotatsiya. Maqolada jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, ta’lim-tarbiya tizimini ilm-fan taraqqiyotining eng so’nggi yutuqlari negizida modernizatsiyalash uchun yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish davomida bo’lajak o’qituvchilarning tarbiyaviy faoliyatini amalga oshirishlari zarurligiga asoslanib, tarbiyaviy faoliyat tushunchasining mazmuni, maqsadi va vazifasi, jarayonni tashkil etish uchun talabalar o’zlashtirishi kerak bo’lgan bilimlar sohasi bayon etilgan.

Аннотация. В статье освещаются процессы глобализации, происходящих в мире, необходимость для будущих учителей осуществлять образовательную деятельность в процессе повышения социальной активности молодежи с целью модернизации образовательной и воспитательной системы на основе новейших достижений развития науки, содержания, цели и функции концепции образовательной деятельности.

Annotation. The article highlights the processes of globalization that taking place in the world, the need for future teachers to carry out educational activities in the process of increasing the social activity of young people in order to modernize the educational and educational system on the basis of the latest achievements in the development of science, the content, purpose and function of the concept of educational activity.

Tayanch tushunchalar: ilm-fan, tizim, kompetentsiya, kompetentlik, tarkib, qism, ta’lim, standart, samara, maxsus uslub, natija, imkoniyat, tarbiyaviy faoliyat.

Ключевые слова: наука, система, компетенция, компетентность, содержание, часть, образование, стандарт, эффект, особый метод, результат, возможность, образовательная деятельность.

Keywords: science, system, competence, competent, content, part, education, standard, effect, special method, result, opportunity, educational activity.

Kirish. Dunyodagi globallashuv jarayonlari, ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar, ilm-fanni taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlar asosida modernizatsiyalash ta'limni axborotlashtirish sharoitida yoshlar ijtimoiy faolligini "ommaviy madaniyat", terrorizm, ekstremizm, negilizm va giyohvandlik kabi salbiy illatlarga qarshi mafkuraviy kurashish modellari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Jumladan, Sarbon deklaratsiyasi (Sorbonne Declaration), ta'lim barcha uchun (Education For All (EFA)), Ming yillik rivojlanish maqsadlari (Millennium Development Goals (MDGs)), Jahon ta'lim forumi (World Education Forum) va Lissabon Konvensiyalari doirasida hamda Bolonya jarayoni tarkibida bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishning innovatsion yo'nalishlarini belgilash, tarbiya jarayonining interfaol shakllari variativligini ta'minlash borasida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Jahondagi ta'lim muassasalari, shuningdek, ilmiy-tadqiqot muassasalarida axborot ta'lim sharoitida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali olib borishda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishdagi kreativ yondashuvni amalga oshirish, ta'lim muassasalaridagi jarayonlarni zamonaviy xorijiy texnologiyalar asosida amalga oshirish (Benchmarking), bilimlar berishda no'ananaviy yondashuvlar hamda media-ta'lim imkoniyatlarini joriy etish (Total quality management), yagona elektron tizim orqali ta'limni amalga oshirish, ta'lim jarayonini tashkil etishda mutaxassisning kasbiy kompetentsiyalariga asoslangan (Tuning) intellektuallashtirilgan tizim hamda ta'lim berishning ko'p bosqichli modellarini joriy etishga doir ilmiy izlanishlar tashkil etilmoqda. Yana shuni ta'kidlash lozimki, hozirda tayyorlanayotgan bo'lajak pedagoglarda nostandart fikrlash, tahlil qila olish ko'nikma va malakalari, analiz va sintez orqali tahliliy ma'lumotlar tayyorlay olish qobiliyatlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yangilash, ta'lim tizimida o'qitish sifatini ta'minlashga qaratilgan ilg'or ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonga tatbiq etish, bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyatini taraqqiy etishiga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik yondashuvlar mazmun-mohiyatini takomillashtirish, tizimlashtirish ishlariga yanada ko'proq ahamiyat e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga yo'llagan tabrik nutqida "... biz ta'lim-tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, muallimlar, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, xorijdagi yetakchi ta'lim markazlari bilan ilmiy-pedagogik hamkorlikni kuchaytirish, o'quv-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini, yangi o'quv metodikalarini joriy etish bo'yicha hali oldimizda ko'plab dolzarb vazifalar turganini yaxshi anglaymiz va ularning yechimi ustida doimiy ish olib boramiz" deya ta'kidlagan¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga yo'llagan tabrik nutqi.

Hozirda tayyorlanayotgan bo'lajak pedagoglarda nostandart fikrlash, tahlil qila olish ko'nikma va malakalari, analiz va sintez orqali tahliliy ma'lumotlar tayyorlay olish qobiliyatlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yangilash, ta'lim tizimida o'qitish sifatini ta'minlashga qaratilgan ilg'or ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonga tatbiq etish, bo'lajak pedagoglarning tarbiyaviy faoliyatini taraqqiy etishiga xizmat qiladigan innovatsion pedagogik yondashuvlar mazmun-mohiyatini takomillashtirish, tizimlashtirish ishlariga yanada ko'proq ahamiyat e'tibor qaratilmoqda.

***Pedagogik
oliy ta'lim
muassasalarida
tashkil etiladigan
tizimli tarbiyaviy
faoliyat talaba
qizlarning,
tarbiyachilarning,
mamlakat
ziyolilarining
g'oyaviy
qarashlari,
mafkuraviy
immunitetlarida
o'z aksini topadi,
uning natijasida
jamiyatning
gullab yashnashi,
ravnaq topishi,
kishilarning
ijtimoiy hayotining
farovonlavi hamda
yoshlarning har
tomonlami kamol
topishiga zamin
yaratiladi.***

Bu, o'z navbatida, talaba qizlarni innovatsion yondashuv asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan tizimli tarbiyaviy faoliyat talaba qizlarning, tarbiyachilarning, mamlakat ziyolilarining g'oyaviy qarashlari, mafkuraviy immunitetlarida o'z aksini topadi, uning natijasida jamiyatning gullab yashnashi, ravnaq topishi, kishilarning ijtimoiy hayotining farovonlavi hamda yoshlarning har tomonlami kamol topishiga zamin yaratiladi.

Talaba qizlarni innovatsion yondashuv asosida tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash texnologiyalarini takomillashtirish haqida fikr yuritishdan avval, tarbiyaviy faoliyatga tayyorgarlik tushunchasi, uning mazmun va mohiyatini yoritish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaviy faoliyatga tayyorlik bu ko'p qirrali tushuncha bo'lishi bilan bir qatorda maxsus psixologik holat hisoblanib, subyektda ma'lum bir harakat (lar)ning tarkibiy tuzilishi va uni bajarish monitoringining doimiy ravishda diqqat markazda bo'lishini nazarda tutishdir. U pedagogik vazifani anglashga turli xil munosabatlarni, ehtimoliy xulq-atvor modellarini, faoliyatning maxsus usullarini aniqlashni, qiyinchiliklarga nisbatan ularning imkoniyatlarini baholash va ma'lum bir natijaga erishish zarurligini o'z ichiga oladi.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da tayyorgarlik tushunchasining quyidagi ikki xil ta'rifi keltiriladi: funktsional (subyektiv) – shaxsning o'zini faoliyatni amalga oshirishga qodir deb biladigan, uni bajarishga intiladigan holati hamda mazmuniy (obyektiv) – subyektda faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xossalari, sifatlar, bilimlar va malakalarning shakllantirilganligi².

Adabiyotlar tahlili asosida mazkur tushunchaga berilgan turli talqinlarni uchratdik. Xususan, X.K. Ismailova, Q.T. Olimov, J.A. Hamidovlar “tayyorgarlik” tushunchasini ma'lum bir faoliyatni amalga oshirish mobaynida zarur bo'ladigan ruhiy funksiyalar bilan bog'lagan bo'lsalar, L.V. Shkerina uni avvaldan o'zlashtirilgan ko'rsatma, bilim, ko'nikma va malaka deb baholaydi: “U yoki bu faoliyat turiga tayyorgarlik mazkur faoliyatni qo'llash uchun zaruriy bo'lgan ilgari egallangan ko'rsatma, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zi ichiga oladi”³.

A.A. Akramov bo'lajak o'qituvchilarning har tomonlami tayyorgarligi xususida fikr yuritib, ularni kasbiy faoliyatga har tomonlami tayyorlash pedagogik mehnat bozorida ularning raqobatbardoshligiga erishish imkonini berishini, bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining yuksak darajadagi fuqarolik

² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. //Бегматов Э., Мадвалиев А. ва бошқалар.; – II жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 606 б

³ Шкерина Л.В. Профессионально-ориентированная учебно – познавательная деятельность студентов в процессе математической подготовки в педвузе: дис. ...доктора педагогических наук: – Красноярск, 1999.-332с.

mavqeyiga ega ekanliklari, kundalik kasbiy faoliyat jarayonida O'zbekiston jamiyatining fidoyi fuqarosi sifatida o'zlarini his etishlari lozimligini uqtiradi. Shundagina, deydi u: ular o'z o'quvchilarida mustaqil O'zbekiston jamiyatiga nisbatan fidoyilik va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantira oladilar⁴. Darhaqiqat, talaba qizlarni tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga tayyorlash va amalga oshirish davomida ularda faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish, ularni O'zbekiston jamiyatining fidoyi fuqarosi sifatida tarbiyalash mantiqan to'g'ridir. Sababi, A.Avloniy to'g'ri ta'kidlaganidek, tarbiyachilar tarbiya ishini amalga oshirish uchun avvalo o'zlarda ana shu sifatlar mavjud bo'lishi lozimdir.

Demak, talaba qizlarning tarbiyaviy faoliyatga tayyorligi – bu tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir nazariy bilimlarni egallaganlik hamda mazkur faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarni o'zlashtirganlik deyish mumkin.

Tarbiyaviy ishlarga tayyorgarlik o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik tizimidan kasbiy faoliyat tizimiga o'tish davridagi shaxsiy holatini aks ettiruvchi ajralmas xususiyatdir.

N.M. Boritko bo'lajak mutaxassislarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash jarayonlarini shaxsning intellektual faoliyatlariga qo'yiladigan mantiqiy ketma-ketlikdagi uzviy va uzviy bo'lmagan me'yor hamda talablar mazmuni sifatida qaraydi⁵.

Psixolog olimlarning e'tirof etishicha, tarbiyaviy ishlarga tayyorgarlik o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik tizimidan kasbiy faoliyat tizimiga o'tish davridagi shaxsiy holatini aks ettiruvchi ajralmas xususiyatdir.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga bo'lgan e'tiborning kuchayishi tarbiyani samarali tashkil etishga tizimli yondoshuv ta'lim tizimidagi ko'pgina muammolarni hal etishga ham imkoniyat yaratadi. Tarbiya ishlarini tashkil etishga qiziqishning ortishi esa ta'lim va tarbiya jarayonlarini birgalikda olib borishning ta'lim muassasalaridagi o'rni va ahamiyati, mavqeyini oshirib borishi bilan ham izohlanadi. Shu sababli, bo'lajak pedagoglarga qisqa muddatda tahliliy materiallar asosida kelajakni o'ylab qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini shakllantirishni inobatga olish; ta'lim oluvchilar, ota-onalar, jamoat tashkilotlari hamda xususiy kompaniyalar vakillari bilan samarali muloqot usullari, jumladan o'z imijiga ega bo'lish kabi qobiliyat va boshqalar.

Tadqiqotimiz mobaynida oliy pedagogik ta'lim bosqichlarida talaba qizlarning tarbiyaviy faoliyatini tashkil etish bo'yicha shakllantiriladigan ko'nikmalarni tizimlashtirdik (1-jadvalga qarang).

A.Avloniy to'g'ri ta'kidlaganidek, tarbiyachilar tarbiya ishini amalga oshirish uchun avvalo o'zlarda ana shu sifatlar mavjud bo'lishi lozimdir. Demak, talaba qizlarning tarbiyaviy faoliyatga tayyorligi – bu tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga doir nazariy bilimlarni egallaganlik hamda mazkur faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarni o'zlashtirganlik deyish mumkin.

⁴ Акромов А.А. Шахсга йўналтирилган таълим технологиялари асосида бўлажак ўқитувчиларда фуқаролик позициясини ривожлантиришнинг ташкилий-методик асосларини такомиллаштириш: пед. фан. докт. ...дис. – Тошкент, 2016. – 279 б.

⁵ Борытко Н.М. Теория и практика становления профессиональной позиции педагога-воспитателя в системе непрерывного образования: Автореф. ... докт. пед. наук. – Москва, 2001.

1-jadval

Oliy pedagogik ta'lim bosqichlarida talaba qizlarning tarbiyaviy faoliyatini tashkil etish bo'yicha shakllantiriladigan ko'nikmalar



Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumknki, talaba qizlarni tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga tayyorlash va amalga oshirish jarayoni ulardan insoniylik, tashabbuskorlik, faollik, o'quv jarayoni subyektlarining o'zaro munosabatlari tengligi va yana ko'plab ijtimoiy faollik xususiyatlarini talab etadiki, bu talab pedagog-o'qituvchilar zimmasiga bir qator ma'suliyatli vazifalarni yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrda "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga yo'llagan tabrik nutqi.*
2. *Begmatov E., Madvaliev A. va boshqalar. O'zbek tilining izohli lug'ati. – II jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 606 b.*
3. *Шкерина Л.В. Профессионально-ориентированная учебно-познавательная деятельность студентов в процессе математической подготовки в педвузе: дис. ...докт. пед. наук. – Красноярск, 1999. – 332 с.*
4. *Akramov A.A. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish: ped. fan. dokt. ...dis. – Toshkent, 2016. – 279 b.*
5. *Борытко Н.М. Теория и практика становления профессиональной позиции педагога-воспитателя в системе непрерывного образования: автореф. ...докт. пед. наук. – Москва, 2001.*